

03

09.01.2023

## **Fanlarni o'zlashtirish darajasi nazoratini kuchaytirish to'g'risida**

Talabalar tomonidan fanlarni o'zlashtirish darajasi nazoratini kuchaytirish, akademik qarzdorliklarni belgilangan muddatda bartaraf etishda xolislik (obyektivlik)ni ta'minlash hamda fan mavzularini o'zlashtirish uchun talabalarga qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida

### **BUYURAMAN:**

#### **1. Fakultetlar dekanlari A.A. Raxmatullayev, D.T. Ashurova, A.R. Valiyev, S.N. Nurxodjayev va kafedralar mudirlariga:**

- to'rtta va undan ortiq darsga (amaliy mashg'ulot, ma'ruza, laborator ish yig'indisiga ko'ra) qatnashmagan talaba bo'yicha dekanatga bildirishnoma kiritish va "darsda bo'lmadi" (DB) dekanat ruxsatnomasiga asosan unda belgilangan muddatlarda qayta topshirishga qat'iy rioya qilinsin.

#### **2. Kafedralar mudirlariga:**

-DBni qayta topshirish Institut va Talabalar bilimni baholash va o'quv-simulyatsiya markazi tomonidan belgilangan guraanitar, ijtimoy-iqtisodiy, klinika oldi va klinik fanlar bo'yicha fakultetlar va kurslar kesimida fandan DBsi bor (sonidan qat'iy nazar) va uni qayta topshirmagan talabalar ro'yxati har oyning 12 va 25 sanalarida dekanatga kiritib borilsin;

-DBni qayta topshirish natijasi (Talabalar bilimni baholash va o'quv-simulyatsiya markazi yoki kafedrada) ijobiy baholangan holda uning natijasi qayta topshirishdan keyingi bir ish kuni muddatida guruh pedagogi tomonidan professor-o'qituvchining (guruh) jurnali va elektron jurnalga kiritib borilsin;

-yakuniy nazorat (YN) va YNni qayta topshirish o'tkazilgan kundan boshlab, kafedrada o'tkazilgan YN ikki ish kuni davomida, Talabalar bilimni baholash va simulyatsiya o'quv markazida o'tkazilgan YN uch ish kuni davomida YN qaydnomalarini o'quv uslubiy bo'lim va dekanatga taqdim etib borilishi ta'minlansin;

-YN topshirish davomida talaba tomonidan qoidabuzarliklarga (test davomida kompyuterni majburan o'chirilishi, vaqtni atayin cho'zishi, test davomida ruxsatsiz imtixon xonasini tark etishi) yo'l qo'yilganda talaba YNni qayta topshirishga kelganda, manfiy koeffitsent bilan kiritiladi;

-reyting daftarchasini bosqichma-bosqich elektron shaklda yuritishga o'tilishi munosabati bilan YNga talabalarni reyting daftarchasi bilan qo'yish (YN Talabalar bilimini baholash va simulyatsiya o'quv markazida o'tkazilganda kafedra vakili tomonidan yig'ib olinadi), YN natijasi reyting daftarchasida aks ettirilgan holda YN qaydnomasi bilan birga dekanatga taqdim etib borish joriy etilsin.

**3. Fakultetlar dekanlari A.A. Raxmatullayev, D.T. Ashurova, A.R. Valiyev, S.N. Nurxodjayevga:**

-kafedralar tomonidan taqdim etilgan bildirishnomalar va elektron jurnal ma'lumotlari asosida davomati va o'zlashtirish sust talabalar har oyda kamida ikki marotaba dekanatning muvofiqlashtirish kengashi yig'ilishida ko'rib chiqilsin. Har bir holat bo'yicha davomat va o'zlashtirish sustlik sabablari o'rganilib, tegishli choralar ko'rilsin;

-tugallangan fan bo'yicha kafedralar tomonidan taqdim etilgan YN qaydnomalari va reyting daftarchasidagi ma'lumotlar solishtirilgan holda elektron reyting daftarchasi platformasiga kiritib borilsin;

-ushbu buyruqning 1- va 2-bandlarida keltirilgan tartibga rioya etilmagan holatlarda kafedra mudiri, o'quv ishlarga mas'ul va guruh pedagogiga nisbatan intizomiy chora ko'rish to'g'risida institut rahbariyatiga bildirishnoma taqdim etilsin.

**4. Talabalar bilimini baholash va simulyatsiya o'quv markazi direktori U.U. Abdullayeva, bo'lim boshliqlari F.M. Axrarova va A.K. Tursunbayevga:**

-belgilangan muddatda testlar bazasini yaratilishi, ekspertizadan o'tkazilishi va rasmiylashtirilishi ta'minlansin;

-talabalar bilimini baholash va o'quv-simulyatsiya markazida talabalarni DB va YN topshirish davomida telefon va boshqa yordamchi usullardan foydalangan, kuzatuvchiga qo'pol muomalada bo'lgan, xujjatsiz va tegishli ma'lumotnomasiz kelganligi, qalbaki xujjatlardan foydalangan va tashqi ko'rinishi talabga javob bermagan xollarda talabalarga nisbatan tegishli choralar ko'rilsin.

**5. Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i J.B. Sattorovga:**

- dekanat muvofiqlashtirish kengashi ma'lumotlarini o'rganib borish natijalariga ko'ra tizimli ravishda talabalar davomati va o'zlashtirishi sust ko'rsatkichli fan, guruh pedagog(lar)i bo'yicha tahliliy ma'lumot tayyorlab borilsin. Tahliliy ma'lumot natijalariga asosan ko'rilishi zarur bo'lgan choralar bo'yicha institut rahbariyatiga bildirishnoma taqdim etib borish amaliyoti joriy etilsin.

**6. Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi direktori Q.N. Tursunboyevga:**

- davriy ravishda Hemis platformasiga kiritib borilayotgan ma'lumotlarni, shu jumladan YN natijalari to'liq kiritib borilishi muvofiqlashtirilsin.

7. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'quv ishlari bo'yicha prorektori professor Q.N. Xaitov zimmasiga yuklatilsin.

Rektor

*Soliga*

*So'g'...*



B.T. Daminov